

ARCHAICA AVLADI VAKILLARINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Karshibayev J.X., Guliston davlat pedagogika instituti

Maxmudjonov Z.M., Guliston davlat pedagogika instituti

Kalit so'zi: archaica, molyuska, kserofil, megoksirofil.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqiyosida kuzatilayotgan ekologik holatning keskin o'zgarishi, asosan antropogen kuchlar ta'siri natijasi bo'lib, bu holat hayvonot olamining bioekologik xususiyatlariga, jumladan mollyuskalarga ham ta'sir ko'rsatib, natijada ularning lokal yashash joylari yo'qolib ketishiga va bu esa o'z navbatida keng tarqalgan turlar populyatsiyasi o'zgarib, noyob va tabiatdan kamyob bo'lgan turlarning yo'q bo'lib ketishga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, ma'lum bir avlod yoki oila vakillarining ekologiyasiga bog'liq masalalarni o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Qurg'oqchil sharoitda mollyuskalar hayotiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bu: kuchli quyosh nurlanishi, nisbiy namlik, tuproqdagi ortiqcha tuzlardir. Hayvonlarning bunday ekstremal sharoitlarga moslashishi xulq-atvor va fizologik moslashuv natijasida, kam energiya sarflagan holda modda almashinuvini meyor darajada ushlab turishdan iborat bo'lib, bularning barchasi mollyuskalar tanasidan suv bug'lanishini kamaytiradi, natijada mollyuskalarning qurg'oqchil sharoitlarda yashash imkoniyati ortadi.

Asosiy qism. Archaica avlodi vakillarining yashash joyi xususiyatidan kelib chiqib, populyatsiyalar yadrosining joylashishi, mollyuskalarning biror bir statsiyaga bog'liqligi va zichligini yuqori bo'lishini e'tiborga olib, ular yashaydigan hududlarni 3 ekologik kompleksga ajratish mumkin; tekislik o'simliklar assotsiatsiyasi; yarim butali va butali o'simliklar assotsiatsiyasi; tosh uyumlari va daraxtli o'simliklar assotsiatsiyasi. Bu ekologik komplekslardagi biotoplarda o'ziga xos mikroiqlim shakllangan[1].

Ekologik kompleksdagi mollyuskalarni namlikka bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, biotoplardagi namlik darajasiga qarab ularning uchta katta guruhga bo'lish mumkin: gigrofil, mezofil, kserofil va mezokserofil. Mollyuskalarning u yoki bu guruhga mansubligi biotop namlik darajasini taqqoslash asosida amalga oshiriladi, qaysiki Markaziy Osiyoning murakkab relyef tuzilishi, har xil sharoitdagi – quruqdan to namlik darjasini o'ta yuqori bo'lgan biotoplarni shakllanishiga olib kelgan[2]. K.K. Uvaliyeva [3], tomonidan, Qozog'iston va unga yondosh hududlarda tarqalgan quruqlik mollyuskalarning yashash muhitidagi namlik darajasiga qarab, namlik 70-80% bo'lsa u yerda gi mollyuskalarni gigrofil, 50-70% bo'lsa mezofil va namlik darjasini 50% gacha bo'lsa kserofil guruhlarga ajratgan.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida Archaica avlodi vakillarining yashash joyi xususiyatidan kelib chiqib ularni quyidagi ekologik guruhlarga ajratildi:

Kserofil turlar- qurg'oqchil biotoplarda(ochiq joylardagi o'simliklar poyasida, tosh uyumlari ostida) yashaydigan:, Archaica eleorika. Archaica haziratishaxika turlar kiradi.

Mezokserofil turlar, bu guruh vakillari oraliq turlar hisoblanib, asosan ozuqa manbaiga bog'liq holda mezofil va kserofil sharoitga ega bo'lgan biotoplarda yashaydigan: Archaica heptapotamica, Ar. labianix, Ar. apollinis, turlari kiradi. Ma'lumotlaridan ko'rinish turbdiki, turlar soniga nisbatan mezokserofillar ko'pchilikni tashkil etib(3 tur), O'zbekistonda uchraydigan jami Archaica avlodining 60% ga teng. Undan keyin kserofillar 2 tur yoki 40% tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Махмуджонов З. Суюнова Ё. Hygromiidae оила вакилларининг экологик ҳусусиятлари.* International conference on innovations in the field of education 2022/2
2. *Махмуджонов З. Ҳақбердиевә Ҳ. Суюнова Ё. Фаниев Б. Leuconzonella corona нинг биоэкологик ҳусусиятлари. Research and education ISSN: 2181-3191 volume1| issue8| 2022. <https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.7358635>*
3. Увалиева К.К Наземные моллюски Казахстана и сопредельных территорий. - Алма-Ата: Наука Каз. ССР, 1990. - 224с.